

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**



**O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

**“JADID ADABIYOTI TARIXI”  
FANI  
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar

Ta'lif sohasi: 230 000 – Tillar

Ta'lif yo'nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

**Guliston – 2024**

Fanning nomi	Jadid adabiyoti tarixI
Fan/modul kodi	JAT2806
Fan/modul turi	Tanlov
O‘quv yili	2027/2028
Fan semestri	8
Ta’lim tili/turi	O‘zbek/kunduzgi
Fanga ajratilgan soat/kredit	180/6
Auditoriya soat/kredit	72
Mustaqil ta’lim uchun ajratilgan soat/kredit	108

## I. FANNING MAZMUNI

**I.1. Fanni o‘qitishdan maqsad** – Milliy uyg‘onish harakati dunyodagi bir qancha mamlakatlar va millatlar hayotida alohida o‘rin tutgan. Binobarin, uni jahonda kechgan ana shunday adabiy harakat kontekstida o‘rganmoq kerak. Qolaversa, zamonaviy adabiy-estetik tafakkurning tamal toshi ham ayni shu davrda qo‘yildi. Kelgusida ilmiy-tadqiqot bilan shug‘ullanishi zarur bo‘lgan magistrantlarning e’tibori ana shu kabi dolzarb ilmiy-adabiy muammolarga qarati lishi har jihatdan maqsadga muvofiqdir.

**I.2. Fanning vazifasi** – Milliy uyg‘onish harakati dunyodagi bir qancha mamlakatlar va millatlar hayotida alohida o‘rin tutgan. Binobarin, uni jahonda kechgan ana shunday adabiy harakat kontekstida o‘rganmoq kerak. Qolaversa, zamonaviy adabiy-estetik tafakkurning tamal toshi ham ayni shu davrda qo‘yildi. Kelgusida ilmiy-tadqiqot bilan shug‘ullanishi zarur bo‘lgan magistrantlarning e’tibori ana shu kabi dolzarb ilmiy-adabiy muammolarga qarati lishi har jihatdan maqsadga muvofiqdir.

## II. ASOSIY NAZARIY QISM

((Ma’ruza, amaliy (seminar) va mustaqil ta’lim mavzulari)

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

Nº	Modul nomi	Ma’ruza mashg‘ulotida ko‘riladigan mavzular	Amaliy mashg‘ulot bo‘yicha mavzulari	Seminar mashg‘ulot bo‘yicha mavzulari	Mustaqil ta’lim va mustaqil ish mavzulari
1	1-mavzu. Kirish. O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyoti shakllanishining ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik omillari. Yangicha ma’rifatparvarlik va milliy uyg‘onish	Ijtimoiy-siyosiy omillar. Davr voqyeligining adabiyotda aks etishi. Muammoning adabiyotsbunoslikda o‘rganilishi: natijalar, vazifalar. Adabiy-estetik omillar. Davr adabiyotining xos xususiyatlari rivojlanishi tendensiyalari, yechimini kutayotgan ilmiy-nazariy muammolar Ma’rifatparvarlik adabiyotining genezisi, tadriji. Yangicha	Ma’rifatparvarlik harakati, uni paydo qilgan omillar va tarixiy vaziyat.	Jadid adabiyotida Sharq va G‘arb madaniyati masalalari talqin etilgan ilmiy asarlar ustida	Qosimov B. “Izlay-izlay topganim” asarini o‘qib o‘rganish

	adabiyoti	ma'rifatparvarlik adabiyotining xos xususiyatlari; o'zbek milliy uyg'onish adabiyoti shakllanishiga ta'siri. Muammoning o'rganilishi tarixi. Mavzuga oid ilmiy muammolar.		ishlash.	
2	2-mavzu. O'zbek milliy uyg'onish adabiyoti: mavzu ko'lami, janrlar yangilanishi takomili va	Yangi mavzularning maydonga kelishi, ular talqinidagi o'ziga xoslik. Janrlardagi yangilanish. Mavzuga doir ilmiy-nazariy muammolar. O'zbek teatr san'atining maydonga kelishi. Teatrlardagi ilk sahna asrlari namoyishi. Sahna san'ati baqida matbuotdagi ilk taqrizlar. Taqriz janri xususida. Teatr va dramatik asarlarning adabiyotshunoslikdagi talqinlari.	XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistondagi tarixiy sharoit.	Jadid adabiyotinin g xorijda tadqiq qilinishi.	Dolimov U. "Is'hokxon Ibrat". (Istiqlol fidoyilar). kitobini o'qib o'rganish
3	3-mavzu. Poetik obraz yangilanishi tamoyillari Yangi o'zbek she'riyatining maydonga kelishi	O'zbek milliy uyg'onish adabiyotida nasr va nazm poetikasi. Kichik nasriy janrlarda realistik tamoyillar. Jadid romanlarida ijtimoiy masalalar talqini, ularda o'zbek millati hayotining badiiy ifodalaniishi. Nasriy asarlar poetikasi. Mavzu tadqiqi yuzasidan erishilgan natijalar, ilmiy muammolar. Ijodkor badiiy g'oyasining an'anaviy va yangilangan poetik tamoyillar asosida namoyon bo'lishi. Poetik obrazlardagi yangilanish. Yangi o'zbek she'riyatiga jahon adabiyoti ta'siri. Lirik asarlarda ijtimoiy pafos. Lirikada mavzular ko'laming kengayishi. Ijtimoiy she'riyat va barmoq vaznining ommalashuvi. Milliy uyg'onish she'riyati o'zbek she'riyati tarixining o'ziga xos bosqichi sifatida. yechimini kutayotgan ilmiy muammolar.	Jadid adabiyoti yuzaga kelishining ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik omillariga oid ilmiy adabiyotlar ni o'rganish.	Jadid she'riyatida poetik tafakkur tadriji masalasiga doir ilmiy-nazariy adabiyotlarni o'rganish	Sharafiddin ov O. "Cho'lponn anglash" kitobini o'qib o'rganish
4	4- mavzu. Milliy matbuot va adabiyotshunoslik muammolar	Milliy matbuotning shakllanishi va tadriji. adabiy jarayonga ta'siri. Yangi davr adabiyotshunosligining yuzaga kelishi. Behbudiyning "Tanqid saralamoqdir", Cho'lponna "Adabiyot nadir" maqolalari. Fitratning adabiyotshunoslik faoliyati. Adabiy-nazariy qarashlardagi yangilanish. Vadud Mahmudning adabiy-estetik qarashlari. Muammoning o'rganilish darajasi: ilmiy natijalar, vazifalar	Ma'rifatparvarlik jadidchilik harakatidan oldingi ijtimoiy bosqich.	Jadidchilik va milliy matbuot	Fitratning "Adabiyot qoidalari" asarlarini o'qib o'rganish
5	5- mavzu. Jadid she'riyatida badiiy-	Ijodkor badiiy asarlarida badiiy-estetik ideal talqini. Poetik	Ma'rifatparvarlik va	"Oyna" va "Al-Isloh"	Atoulloh Husayniy

	estetik ideal talqini	obrazlardagi yangilanish. Yangi o'zbek she'riyatiga ijodkorlar badiiy-estetik qarashlari. Lirik asarlarda ijtimoiy pafos. Lirikada mavzular ko'laming kengayishi. muammolari. Mavzuning adabiyotshunoslikda o'rgani lishi.	jadidchilik: ilmiy muammolari	jurnallarda adabiyot materiallari.	"Badoyi' us-sanoyi'"asarin konseptlashti rish
6	6- mavzu. Adabiy jarayon va ijtimoiy voqelik Jadid adabiyotida millat va milliyat masalalarining yoritilishi	Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida jadidchilik g'oyalarining aks etishi. Jadid va qadim masalalari. Davr adabiyotida ijtimoiy-siyosiy mavzularning ifoda etilishi. Mardikorlik adabiyoti. Ozodlik harakatining badiiy adabiyotdagi talqini. Mavzu tadqiqida erishilgan natijalar, yechimini kutayotgan muammolar. Jadid adabiyotida millat va milliyat masalasi. Badiiy asarlarda millat taqdiri. Jadid ziyorilari maqolalarida millat talqini. Sharq va G'arb adabiyotida millat va milliyat masalalari.	Jadidchilik harakatining adabiyotga ko'chib o'tishi	Tarixiy asarlarda ijtimoiy hayot.	Quronov D. "Cho'lpion nasri poetikasi" kitobi bo'yicha ma'lumot tayyorlash
7	7-mavzu. XX asr boshidagi adabiy bahslar va ularning adabiy-estetik tafakkur rivoqidagi o'rni	Oyna", "Al-Isloh" jurnallari, "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" gazetalari va boshqa matbuot nashrlaridagi adabiy bahslar. Ularda ko'tarilgan adabiy-estetik va nazariy-metodologik muammolar. Adabiy-estetik bahslarga yondashuv mezonlari. ularning adabiy-estetik tafakkur rivojiga qo'shgan hissasi.	Jadidchilik va jadid adabiyotini ilmiy o'rganish bosqichlari	Lirik asarlarda ijtimoiy turmush manzarasining aks etishi.	Cho'lpionning nasriy asarlarini o'qib-o'rganish
8	8-mavzu. Badiiy publitsistikaning shakllanishi va takomili	Vaqtli matbuotda badiiy publitsistikaning shakllanishi. "Oyna", "Al-Isloh" jurnallari, "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" gazetalarida badiiy publitsistik materiallar talqini.	XX asr boshidagi adabiy bahslar va ularning adabiy-estetik tafakkur rivojidagi o'rni haqidagi ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlili	Fitrat ijodini o'rganish muammolari.	Abdulla Qodiriy romanlarini o'qib-o'rganish
9	9-mavzu: Jadid adabiyotni ilmiy o'rganish bosqichlari	Jadidchilik va jadid adabiyotining mamlakatimiz va xorijda o'rganilishi: yutuqlar va muammolar. Bu davr adabiyotini tadqiq etishning bosqichlari. Har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy muammolari, namoyandalari. Mustaqillik davri jadidshunosligi: tamoyillar va tendensiylar.	Jadid adabiyotining mavzu va shakl yangilanishlari	Adabiy maktablarning ma'rifatparvarlik adabiyotida tutgan o'rni..	Fitrat dramalarini o'qib-o'rganish
10	10- mavzu.	Milliy uyg'onish davri o'zbek	Teatr va milliy	Mustaqillik	A.Avloniyning

	Jadidchilik va jadid adabiyoti ilmiy maktabi.	adabiyoti ilmiy maktabi. Professor B.Qosimov - ilmiy maktab asoschisi. Davr adabiyotini o'rganishga doir nazariy-metodologik yangiliklar, ularning amaliyatga tatbiqi. Ilmiy maktabning adabiy manbaga adabiyestetik yondashuv mezonlari, tadqiq usullarining o'ziga xosligi. Tadqiqot yo'nalishlari. Ilmiy maktab an'analarining davomchilari, erishilgan natijalar	matbuotning shakllanishiga doir asarlarni o'rganish	davri hamzashunos ligi.	dramalarini o'qib-o'rganish
11	11- mavzu. O'zbek milliy uyg'onish adabiyotida Sharq va G'arb madaniyati masalalari Yangi nasr va uning poetik xususiyatlari	Milliy uyg'onish adabiyoti namoyandalari (I.Gasprali, Fitrat, Cho'lpon va b.) ijodida Sharq va G'arb madaniyatiga munosabatning aks etishi. Ovrupo va musulmon madaniyatiga oid qarashlar tadriji. Sharq va G'arb madaniyatiga oid qarashlarning badiiy adabiyotdagi talqini. Muammoning o'rganilish darajasi. O'zbek milliy uyg'onish adabiyotida nasr va uning poetikasi. Kichik nasriy janrlarda realistik tamoyillar. Jadid romanlarida ijtimoiy masalalar talqini, ularda o'zbek millati hayotining badiiy ifodalanishi. Nasriy asarlar poetikasi. Mavzu tadqiqi yuzasidan erishilgan natijalar. ilmiy muammolar.	O'zbek milliy uyg'onish adabiyotiga kirib kelgan badiiy tur va janrlar	Jadid she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari.	Bebbudiyning "Tanlangan asarlar" kitobini o'qib-o'rganish
12	12- mavzu. Kichik nasriy janrlar taraqqiyoti masalalari Dramatik asarlarda ijtimoiy in'ikosi hayat	Kichik nasriy janrlar tadriji. Abdulla Qodiriy va Cho'lpon hikoyalari. O'zbek milliy uyg'onish hikoyalari mavzu ko'lami. Yangi hikoyalarda bayon tarzi va ma'rifiy masalalarning aks etishi. Shakl va ifoda usullari. Ijodkor mahorati masalalari. O'zbek milliy uyg'onish adabiyotida drama. Jadid dramalariga xos tamoyillar. Yangi dranialarda konflikt masalasi. Dramatik asarlardagi obrazlar tabiat. Dramada realizmga xos xususiyatlar	Jadid nasrida adabiy-estetik ideal muammosi.	Cho'lpon she'rlarining mavzu doirasi.	Cho'lpon she'rlaridan yod olish

### III. Fanni o'qitilish natijalari / shakllanadigan kompetensiya!ar Ushbu fanni o'zlashtirish natijasida, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

- Jadid adabiyoti tarixi" fani bo'yicha bakalavr o'zbek mumtoz adabiyotining milliy madaniyatimiz tarixi va takomilidagi o'rni, adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyati, mumtoz adabiyot taraqqiyotining asosiy bosqichlari, mumtoz adabiy janrlarning shakllanishi va takomili, adabiyot

tarixini o'rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillari tog'risida bilimga ega bo'lishi;

- milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti shakllanishining ijtimoiy-tarixiy va adabiy-estetik omillari xususiyatlari haqida o'zbek adabiyotiga xos yangi janrlar va ularning taraqqiyot tamoyillari, she'riyatda vazn, poetik janrlar va obrazlarning yangilanish qonuniyatatlari, taraqqiyot omillarini tahlil qila oiish, yangicha adabiy-estetik tafakkurning yuzaga kelishi sbaroiti va sabablarini, davr adabiyotiga oid she'riy, nasriy va ilmiy asarlarni tahlil qilish **ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak**;

- talaba jadid ijodkorlarning asarlarini o'rganish orqali ularni to'g'ri tahlil va talqin qila olish **malakasiga ega bo'lishi kerak**.

#### **IV. Ta'lim texnologiyalari va metodlari**

- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (aqliy hujum, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

#### **V. Kreditlarni olish uchun qo'yiladigan talablar**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.

To'plangan reyting ballari asosida talabaning bahosi aniqlanadi.

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: Ma'naviyat, 2005.
2. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. – T.: O'zbekiston, 2008.
3. Qosimov B. Milliy uyg'onish. – T.: Ma'naviyat, 2004.
4. Khalid, Adeeb. T'be Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. USA: University of California Press, 1998.
5. Karimov H., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr adabiyoti tarixi. – T.: O'zbekiston. 1999

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Qosimov B. O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
2. Qosimov B. Izlay-izlay topganim. – T.: Adabiyot va san'at, 1983.
3. Dolimov U. Is'hokxon Ibrat. Istiqlol fidoyilari. – T.: Sharq, 1994

4. Sharafiddinov O. Cho'lpotni anglash. – T.: Xazina, 1994.
5. Quronov D. Cho'lpot nasri poetikasi. – T.: Sharq, 2004.

### **Axborot manbalari**

1. <http://natlib.uz> – A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti
2. <http://ensiklopediya.uz> - O‘zbekiston Milliy ensiklopediya
3. <http://ziyouz.uz> – O‘zbek va jahon adabiyoti portal
4. <http://ziyonet.uz> - O‘zbekiston milliy ta’lim portal
5. <http://www.infolib.uz> – Pespublika Axborot kutubxona markazi

Guliston davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

### **Fan/modul uchun ma’sul:**

**O.X. Fayzullayeva** – Guliston davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasи dotsenti, filologiya fanlari doktori 

### **Taqrizchilar:**

**M.R. Mamatqulov** – Guliston davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasи professori, filologiya fanlari doktori

**V.Rahmonov** – Guliston davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasи dotsenti